


Riqa
Dish
V. 34

MA # 410



ALISHER NAVOIY



HIKMATLAR



451
Rich IV 31

18 N

ALISHER NAVOIY

Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti
Toshkent, 1999. — 16 b.

HIKMATLAR

HIKMATLAR

(Bolalar uchun)

Q'zbek muntaz adabiyotining buyuk namoyandasi, xalq merosi nashriyoti tomonidan nashr etilgan. Ushbu hikmatlar bolalar uchun mo'ljallangan va ularni dunyoqarash, qadriyatlar va xalqimizning tarixi haqida bilim berishga xizmat qiladi. Ushbu hikmatlar bolalar uchun mo'ljallangan va ularni dunyoqarash, qadriyatlar va xalqimizning tarixi haqida bilim berishga xizmat qiladi.

Hunarni asrabon nekuvandur oxir,
Olib tufroqqamu kekandur oxir.
IzU

Ko'p degan ko'p yengilur,
Ko'p yegan ko'p yiqilur.

Saxovatliq kishi yog'insiz abri bahor.

Abdulla Qodiriy

Abdulla Qodiriy nomidagi xalq
merosi nashriyoti
Toshkent—1999

Ushbu kitobning nusxasi
1999-yil 10-oyda
Toshkentda nashr etilgan.

N 31

Navoiy A.

Hikmatlar: (Bolalar uchun).—T.:
Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi
nashr., 1999.—16 b.

O'zbek mumtoz adabiyotining buyuk namoyan-
dalaridan biri, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy
she'riyati har bir kitobxonni o'ziga maftun etib keladi.
Ayniqsa, shoirning qator asarlari mag'ziga singib
ketgan mumtoz misralari hikmatli so'zlarga aylanib
ketganki, bu hikmatlarning mohiyat mazmuni yosh
avlodni ota-onani va o'zidan kattalarni hurmat
qilishga, yoshlikda kasb-hunarli bo'lishga, ilm olishga
da'vatdan iboratdir. Ushbu to'plamga shoirning xalq
qalbidan joy olgan xalqchil hikmatlaridan tartib
berilgan.

Kitob maktab o'quvchilariga va keng kitobxonlar
ommasiga mo'ljallangan.

Uz1

HB. № 319289

A 470260102—183 —99
M 361 (04)—99

ISBN 5-86484-032-7

© A. Qodiriy nomidagi xalq
merosi nashriyoti, 1999 yil



HIKMATLAR

Umrni zoye' etma, mehnat qil,
Mehnatni saodating kaliti bil.

* * *

Ko'ngil durji ichra guhar so'z durur,
Bashar gulshanida samar so'z durur.

* * *

Hunarni asrabon netkumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketkumdur oxir.

* * *

Ko'p degan ko'p yengilur,
Ko'p yegan ko'p yiqilur.

* * *

Saxovatsiz kishi yog'insiz abri bahor.

* * *

Donau dur so'zini afsona bil,
Sozni jahon bahrida durdona bil.

Aytar so'zni ayt,
Aytmas so'zdin qayt.

* * *

Ko'p demak so'zga mag'rurlik,
Va ko'p emak nafsg'a ma'murlik.

* * *

Befoyda so'zni ko'p aytna,
Foydali so'zni ko'p eshuturdin qaytna.

* * *

Chin so'zni yolg'ong'a chulg'ama,
Chin ayta olur tilni yolg'ong'a bulg'ama.

* * *

Ma'dani inson gavhari so'z durur,
Gulshani odam samari so'z durur.

* * *

So'zni ko'ngilda pishqarmaguncha tilga keltirma,
Va harnekim, ko'ngilda bor — tilga surma.

* * *

Til ildamidin bo'lur g'aromat hosil,
Yuz nav' malomatu nadomat hosil.

* * *

Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz.

Ko'ngul maxzanining qulfi til,
Ul maxzanning kalitin so'z bil.

* * *

Dushman g'ururidin g'am yema,
Maddoh xushomadin chin dema.

* * *

Er kishiga zebu-ziynat hikmat va donishdur.

* * *

Yaxshilik qila olmasang,
Yomonlik ham bori qilma.

* * *

O't ishi qovurmoq,
Yel ishi sovurmoq.

* * *

Suvning mazasi muz bila,
Oshning ta'mi tuz bila.

* * *

Izzat tilasang, kam de.
Sihhat tilasang, kam ye,

* * *

Yaxshi libos tanga oroyish,
Yaxshi qo'ldosh jonga osoyish.

Fosiqdin hayo tilama,
Zolimdin vafo tilama.

* * *

Boshni fido qilg'il ato boshig'a,
Jismni qil sadqa ano qoshig'a.
Tun-kunihgga aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

* * *

Karam va muruvvat ato va anodurlar,
Vafoyu hayo ikki hamzod farzand.

* * *

Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q.

* * *

Chin so'z mo'tabar, yaxshi so'z muxtasar.

* * *

Bilmaganin so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

* * *

Oz-oz o'rganib, dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

* * *

Ki har ishniki qildi odamizod,
Tafakkur birla bildi odamizod.



Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitdi ranj ila,
Aylamak oson emas haqqin ado ming ganj ila.

* * *

Agar tuzlik o'lsa kishining ishi,
Ne vasf aylay olgay ishini kishi.

Ne qushki, bo'lsa himmatdin qanoti,
Emas past oshyonga iltifoti.

* * *

Tuzlik ermas shifosiyu voyasi ham,
Kim egri kishining egridur soyasi ham.

* * *

Ulki zarar shevasini tavr etar,
Elga demakim, o'ziga javr etar.

* * *

Bir xati gar egri tushar bir nuqat,
Nusxada har safhadadur egri xat.

* * *

Davron elining jismida ham jon bo'lg'il,
Ham jonlarig'a moyai darmon bo'lg'il.

* * *

Jahon ilmiki bukun menga yod erur,
Anga borcha jahl ahli ustod erur.

* * *

Jahl ahli bila kimki ulfat bo'lg'oy,
Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo'lg'oy.

* * *

Yigitlikda yig' ilmning maxzani,
Qarilik chog'i xarj qilg'il ani.

Kim kinavar o'lsa, ista andin qochmoq,
Nechunki zarur durur yomondin qochmoq.

* * *

Kimki o'zi ayladi yolg'on so'zin,
Kizb der el chin desa, qolg'on so'zin.

* * *

Kimniki aylay der esang mahraming,
Ko'p sinamay aylamagil hamdaming.

* * *

Mevaga mag'z o'lsa, bo'lur po'st ham,
Kimsaga ham dushman o'lur do'st ham.

* * *

Naf'ing agar xalqqa beshak durur,
Bilki, bu naf' o'zingga ko'prak durur.

* * *

Necha marazg'aki, erur sud qand,
Nechaga ham zahr erur sudmand.

* * *

Necha zarurat aro qolgan chog'i,
Chin demas ersang, dema yolg'on dog'i.

* * *

Nekim qildi johilki, erdi yomon,
Tutub aksini topdim andin amon.

Qaysi johilga nadomat bo'lg'ay, ul olimcha kim,
Harne qildi bilmadi, harneki bildi qilmadi.

* * *

Qil yaxshiligu demakni doxil qilma,
Minnat bila yaxshilikni botil qilma.

* * *

Har kishikim birovga qozg'ay choh,
Tushkay ul choh uzra o'zi nogoh.

* * *

Har kishikim tuzlik erur peshasi,
Kajrav esa charx, ne andeshasi.

* * *

Har kishiningkim so'zi yolg'on esa,
Aylama bovar nechakim chin desa.

* * *

Har kimsaki aylamas oshuqmoqni xayol,
Yofroqni ifak qilur, chechak bargini bol.

* * *

Ham so'z ila elga o'limdan najot,
Ham so'z ila topib o'lik tan hayot.

* * *

Himmatsiz kishi er sonida emas,
Va ruhsiz badanni kishi tirik demas.



Omiy tabibkim, erur shogirdi jallod,
Ul tig' bila va bu zahr bila halok qilg'uchi bedod.

* * *

Oz ish uchun tundu itob aylama,
Qatlu siyosatda shitob aylama.

Parvonani ishq etmasa mast,
Urg'aymu o'zini o'tqa payvast?!

* * *

Tabiatga har neki odat bo'lur,
Chu eskirdi odat tabiat bo'lur.

* * *

Tinch ko'ngil birla qatiqsiz umoch
Behki birov minnati bilan kuloch.

* * *

Ushoq qand oq tuzga monand erur,
Va lekin biri tuz, biri qand erur.

* * *

Xaloyiqqa ko'rma qilib benavo,
O'zingga ravo ko'rmaganni ravo.

* * *

Xiradmand chin so'zdin o'zga demas,
Vale borcha chin ham degulik emas.

* * *

Chun sinsa ko'ngil zaxm zabon og'rig'idin,
Kam ermas aning og'rig'i jon o'grig'idin.

* * *

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adli buzuq mulkni obod etar.

Qachon sochsa tuproqqa bug'doy birov,
Yo'q imkoni ul arpa qilg'oy g'arov.

* * *

Qardoshing emas, ulki qo'yib bosh senga
Davlat chog'i qilg'ay o'zin qo'ldosh senga.

* * *

Yo'q hunari yolg'uz esa o'z kishi,
Qayda kishi sonida yolg'uz kishi.
Fard kishi davrda topmas navo,
Yolg'uz ovuchdin kim eshitmish sado!

* * *

Kimki, falak sori otar toshini,
Tosh ila ozurda qilur boshini.

* * *

Menga ne yoru ne oshiq havasdur,
Agar men odam ersam, ushbu basdur.

* * *

Har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshilikdin anga yaxshiliq.

* * *

Ilm Navoiy, senga maqsud bil,
Emdikim ilm o'ldi, amal aylagil.

Adabiy-badiiy nashr

Alisher Navoiy

HIKMATLAR

(Bolalar uchun)

O'zbek tilida

Muharrir Ilhom Zoyir

Musavvir Temur Sa'dulla

Tex. muharrir Valentin Veremeyuk

Musahhih Ziyoda Lativxon qizi

IB № 183

Terishga berildi 04.01.99. Bosishga ruxsat etildi 25.01.99. Bichimi 84x108 1/16.
Shartli bosma tabog'i 1,0. Ofset qog'oz. Nashr bosma tabog'i 0,6. Adadi 15.000
nuxxada. Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma № 192

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining Abdulla Qodiriy nomidagi xalq
merosi nashriyoti, Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Nashr raqami № 5.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining Kitob-jurnal fabrikasida
chop etildi. Toshkent—194. Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1-uy.

Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshiliq.

* * *

Kishi xanzal eksa, achig' bar topar,
Va gar nay shakar eksa, shakar topar.

* * *

Kishi muhraro harna qilsa nigor,
Varaqda hamul naqsh o'lur oshkor.

* * *

Odam o'lg'on zebi-zohirdin demas,
Kimki andin faxr etar, odam emas.

* * *

Odami ersang, demagil odami,
Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

* * *

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'ling bir-biringizgaki erur yorlig' ish.

* * *

Birovgakim birovdin yetdi ofat,
Hamonokim qotig'roqdur mukofot.

* * *

Birovkim anga himmat o'ldi baland,
Erur odam ahli aro arjumand.

Adabiy-badiiy nashr

Alisher Navoiy

HIKMATLAR

(Bolalar uchun)

O'zbek tilida

Muharrir Ilhom Zoyir

Musavvir Temur Sa'dulla

Tex. muharrir Valentin Veremeyuk

Musahhih Ziyoda Lativxon qizi

IB № 183

Terishga berildi 04.01.99. Bosishga ruxsat etildi 25.01.99. Bichimi 84x108 1/16.
Shartli bosma tabog'i 1,0. Ofset qog'oz. Nashr bosma tabog'i 0,6. Adadi 15.000
nuxxada. Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma № 192

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining Abdulla Qodiriy nomidagi xalq
merosi nashriyoti, Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Nashr raqami № 5.

O'zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo'mitasining Kitob-jurnal fabrikasida
chop etildi. Toshkent—194. Yunusobod dahasi, Murodov ko'chasi, 1-uy.

Ki har kim ayon etsa yaxshi qiliq,
Yetar yaxshiliqdin anga yaxshiliq.

* * *

Kishi xanzal eksa, achig' bar topar,
Va gar nay shakar eksa, shakar topar.

* * *

Kishi muhraro harna qilsa nigor,
Varaqda hamul naqsh o'lur oshkor.

* * *

Odam o'lg'on zebi-zohirdin demas,
Kimki andin faxr etar, odam emas.

* * *

Odami ersang, demagil odami,
Oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

* * *

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'ling bir-biringizgaki erur yorlig' ish.

* * *

Birovgakim birovdin yetdi ofat,
Hamonokim qotig'roqdur mukofot.

* * *

Birovkim anga himmat o'ldi baland,
Erur odam ahli aro arjumand.

Birovkim bo'lur bir oyoq osh uchun qo'l,
Yuziga kerakdur qozonning qarosi.

* * *

Bir diram olmoq chekibon dast ranj,
Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj.

* * *

Bu gulshan ichra yo'qdur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur qolsa yaxshilik bila ot.

* * *

Gavharu durni quloq ozori bil,
So'zni quloqning duri shahvori bil.

* * *

Yomon bila yaxshi orasida farqdir,
Ikki kemaning uchin tutgan g'arqdir.

* * *

Izzat bermas naqlu diram borlig'i
Kim, bo'ldi tama'din kishining xorlig'i.

* * *

Kamol et kasbkim, olam uyidin,
Senga farz o'lmag'ay g'amnok chiqmoq.

* * *

Kimgaki erlik asari yordur,
Bir demas ar qilgani ming bordur.

ДДБ № 319289

78 -

